

## SURXONDARYO BAXSHI-DOSTONCHILIK IJODIYOTI VA UNING TA'LIM TARBIYADAGI AHAMIYATI

**Chutboyeva Malika Toyirovna.**

**Respublika Baxshichilik san'atiga ixtisoslashtirilgan  
maktab internati oliy toifali o'qituvchisi**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O'zbekistonda baxshichilik san'ati va uning etnografik jihatlari tahlil qilinadi. Janubiy O'zbekistonning Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlaridagi baxshichilik san'ati, xalq og'zaki ijodining etnolokal xususiyatlari, shuningdek, baxshilarning ma'naviy-madaniy merosdagi roli ko'rib chiqiladi. Baxshichilikning tarixiy va etnografik jihatlari, uning xalqning orzu-umidlari, yuksak insonparvarlik va vatanparvarlik g'oyalarini ifodalashdagi ahamiyati hamda bu san'atning rivojlanishi uchun amalga oshirilayotgan tadbirlar tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Baxshichilik san'ati, xalq og'zaki ijodi, etnografiya, Janubiy O'zbekiston, madaniy meros, etnolokal xususiyatlar, folklor, doston, etnografik tadqiqot, xalq qadriyatlarini, milliy madaniyat.

Bugungi kunda nomoddiy madaniy merosni saqlash va kelajak avlodga yetkazish, o'rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Markaziy Osiyo, xususan, O'zbekistonda baxshichilik san'atini o'rganish, Janubiy O'zbekiston – Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida baxshichilik san'atini YuNESKOning ma'naviy-madaniy merosi ekanligi, xalq og'zaki ijodining etnolokal xususiyatlarini o'zida aks ettirishi bugungi kunning dolzarb muammolari ekanligini ko'rsatadi.

2019 yilning 6 aprelida Termiz shahrida Xalqaro baxshichilik san'ati festivalida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganidek: “Baxshilar nafaqat xalq o'tmishining aks-sadosi, ayni paytda bugungi kunning ham jarangdor ovozidir”.

Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohatlar natijasida yoshlarning xalq og'zaki ijodiyotiga bo'lgan ishtilishlarini qo'llab-quvvatlash, dostonlarni etnografik jihatdan ilmiy tahlil etish, baxshichilikning etnomadaniy jarayonlarga ta'sirini etnografik yo'nalishda tadqiq etish bugungi kunning zaruriyatidir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2018 yil 1 noyabrdagi “Xalqaro baxshichilik san'ati festivalini o‘tkazish to‘g‘risida”gi PQ – 3990-son, 2019 yil 14 maydagi “Baxshichilik san'atini yanada rivojlantirish chora- tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4320-son, 2021 yil 10 apreldagi II xalqaro baxshichilik san'ati festivaliga tayyorgarlik ko‘rish va baxshichilik san'atini rivojlantirish sharoitlar yaratishga doir qo‘shimcha chora- tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ – 5070 – son qarorlari hamda sohaga oid boshqa me'yoriy- huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoevning mazkur muhim tadbir o‘tkazilishining asosiy tashabbuskori bo‘lishi ham diqqatga sazovordir. O‘zbekiston-atoqli baxshilar yurti.

Ular orqali yurtimizning boy qadriyatlari, o‘tmishi, orzu va umidlari ifoda etiladi. Baxshilarimiz ijro etgan doston va termalarda xalqimizga xos yuksak vatanparvarlik, olijanoblik, insonparvarlik, ona yurtimizga muhabbat va sadoqat o‘z ifodasini topgan. Shu sababli Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev e’tirof etganidek, “Ayni vaqtda hozirgi globallashuv davrida, tijorat vositasiga aylangan “ommaviy madaniyat”, shou-biznesning salbiy ta’siri tobora kuchayib borayotgan murakkab zamonda har qanday milliy madaniyatning bulog‘i bo‘lgan fol’klor san'atiga e’tibor va qiziqish, afsuski, susayib borayotgani ham sir emas. Holbuki, folklor san'ati, ta’bir joiz bo‘lsa, bu-insoniyatning bolalik qo‘shig‘idir” deb ta’kidlagan.

Sovet hukumati davrida o‘zbek baxshichilik maktablari faoliyati ham ancha tadqiq qilindi. Jumladan, XX asrning 20- yillardan boshlab xalq og‘zaki ijodini to‘plash, chop qilish ular ustida tadqiqotlar olib borish yuzasidan ma'lum ekspesiyalar uyushtirildi.

Jumladan, taniqli folklorshunos olimlar tomonidan Surxondaryoning Boysun Tumanida yashovchi baxshilarning ijod namunalari yozib olindi. H.Zarifovning tadqiqotlarining muhim jihati shundaki, mintaqada baxshichilik maktablarining

paydo bo'lishi, repertuari, lokal xususiyatlari ochib berilgan. J.Xoshniyazov o'z tadqiqotida "Alpomish" dostonining Qoraqalpoq variantiga to'xtalib, o'zbek va qaroqalpoq variantidagi "Alpomish" dostonlarini qiyosiy tahlil qilib, ushbu variantlarning tarixiy xususiyatlarini ochib berishga harakat qiladi.

Xalqimizning boy va betakror fol'klor asarlari, xususan dostonlar "bizga insonparvarlik fazilatlaridan saboq beradi. Odil va haqgo'y bo'lishiga, o'z yurtimizni, oilamiz qo'rg'onini qo'riqlashga, do'sti yorimizni, or-nomusimizni, bobolarimizning muqaddas mozorlarini har qanday tajovuzdan himoya qilishga o'rgatadi".

O'zbek folklorshunosligida dostonchilikning jixatlari tahlil etilgan. Bu san'atning o'ziga rivojlanish qonuniyatlari, texnikasi, badiiyati qimmatli fikr mulohazalar ko'rsatilgan asarlar va boshqa o'nlab tadqiqotlarda ko'proq Samarqand, Buxoro va Xorazm an'anaviy dostonchiligi materiallari asosida olib borilgan qadimdan mavjud bo'lgan Janubiy O'zbekiston dostonchiligi va baxshilari mahorati juda kam yoritilgan. O'zbek millatining bebaho xazinasini hisoblangan baxshi va doston etnotoponimlariga bir-birini to'ldiruvchi bo'lib, ularning mazmunan ham bir-birini to'ldirib borib, o'z mazmun va ma'nosini asrlarosha milliy jihatdan boyitib kelmoqda.

Etnotoponim lug'ati tahliliga e'tibor berilsa; "Baxshi (baxsi, baqsi) so'zi lug'atlarda turkiy so'z bo'lib, murabbiy va muallim ma'nolarini anglatadi, umuman, tarbiyachi, yetakchi, yo'lboshchi kabi talqinlar ham unda mujassam<sup>56</sup>. Shuningdek, xalqimiz qalbida alohida o'rin olgan doston atamasi keng qamravga ega nazm va nasrdan tashkil topgan katta hajmli asar, qahramonlar silsilasi, voqealar halqasi uzviyligi va o'zaro hamohang bog'lanishi bilan diqqatlidir.

O'zbek xalqining milliy iftixori bo'lgan Alisher Navoiy aslida ijodni bayon etishda so'z vositasi orqali baxshiyona usulda atrof-dagilarga bayon etgan, uning ijodida har bir narsa yaxshilikga bag'ishlangan. Albatta o'zining ijobiy natijasini berishini xalqqa tushunirishga kuch bag'shida etgan. Uning ijodida inson, aql-idrok, odob, mehnat, burch, ma'suliyat, o'z so'zida turish, ilmga ilhom berish, odamlarni ertangi kunga ishontirish, kulfat, jaholat, imonsizlik, xiyonat albatta ertaga chekinishi



yoki magʻlub boʻlishini dostonlarda afsonaviy, qiyosiy qiyofalar hamda xalq orzu-umid qilgan qahromonlarni oru-nomusi, oʻz xalqiga sadoqati bilan erishishi mumkinligini singdira olgan. Masalan, Alisher Navoiy “Sab'ai sayyor” dostoni oʻn birinchi bobining sarlavhasiga eʼtibor qiling: “Shoh Bahrom dostonigʻa shuruʻ qilurdin burun bir necha soʻzga murtakib boʻlmoq va ul dostonda tagʻyir va tabdil voqeʻ boʻlgʻonning uzrin qoʻlmoq...”. Alisher Navoiy doston atamasini ayni shu oʻrinda “Shoh Bahrom dostoni...” deganda “Shoh Bahrom qissasi...” yaʼni dostondan murod qissa boʻlib, rivoyat va afsona maʼnolariga ham ishora mavjud. Demak baxshi va doston yoki baxshichilik va dostonchilik atamaları uyqash maʼnolarni talqin etib, el hurmatiga sazovor baxshi hamda el qalbiga yetib borgan doston tarzida olqishlar olamida ustuvor maqom egallagan.

Oʻzbek xalqi milliy ogʻzaki dostonchilikning maʼnaviy qadriyatlarimiz bevosita etnografiya bilan toʻliq bogʻliq boʻlib, baxshi ijodidagi hir bir soʻz qanday yoʻnalishda bayon qilinmasini xalq urf-odatları, anʼanalari, qadriyatları va marosmlarini qaysi bir sohasini talqini etmasin u albatta etnologik tahlillar bilan bogʻliqdir.

Etnografik tadqiqotlar jarayonida boʻldiki, dostonlar baxshilarni sinovlardan oʻtkazgan, baxshi boʻlish ham tabbiy qobiliyat ham katta mehnat evaziga bevosita bogʻliq boʻlib, xalqni ishontirish uchun soʻz va doʻmbira quvvati bir-birini toʻldirgan. Aks holda xalq baxshi boʻlish ilinjida yurganlarni davraga qabul qilmagan. Tadqiqotlar davomidagi eng muhim narsa shu boʻldiki, baxshilar sokinlik, jim-jitlik, kamgaplik, koʻz qarashlarni faqat doʻmbiraga qartaoladigan, koʻyni ketma-ketligini bevosita soʻzlar ketma-ketligiga bogʻlash ususliga hamisha uygʻunlashtiradigan holda ijro usulini qoʻllaganlar.

Baxshi ijodga kirishish unitgan, butun kuch-gʻayratini soʻz va doʻmbira nuqtalariga qaratgan, u koʻylashga tushganda faqat adolatni, shukuronalikni, diyonatni, xolislikni, kamtarlikni, saxiylikni, qoʻrmaslikni, shijoatli boʻlishni oʻziga qalbdan ohanglarida insonni umidsizlikdan olib chiqish, aql-kuch birlashsa albatta gʻalabaga erishish mumkinligi ishontirish gʻoyasi bilan ojizlarni quvvatga kiritgan,

darmonsizlarga darmon bergan, kasallarga shifo ato etib, yashashga bo'lgan umidni insonlar ongiga ruh bilan kiritgan.

Milliy xalq og'zaki ijodini o'zida mu'jassam etgan dostonlarni, termalarni va aytushuvlarni o'zida aks etgan ko'ylovni amalga oshirgan baxshining xalqmimiz o'z talqini bo'yicha shoir, sozchi, sozanda, soqi, sanovchi, yuzboshi, xalfa, jirov, jirchi, oqin, oxun va boshqalar.

Baxshilar ijrosidagi “Alpomish”, “Go'ro'g'li”, “Kuntug'mish”, “Rustamxon”, “Murodxon”, “Misqol pari”, “Hasanxon”, “Avazxon”, “Ravshan”, “Intizor”, “Erali”, “Oysuluv” va boshqa ko'plab shu kabi dostonlar el ardog'iga etilgan. Dostonlar – xalqning tarixi, el-ulus o'tmishining bayoni, orzu-armonlar kechmishi, bir so'z bilan xalq tarixining qo'shig'i, taqdirining ohangi, qismatining mungli musiqasi, kelajakning shodon yallasi.

Baxshilar esa ana shu xalq tarixining kuychisi, tengsiz hofizi, tug'rirog'i, ajdodlar va avlodlar o'rtasidagi oltin zanjir, tarixni tarixga og'zaki ko'chiruvchi, tarixni tarixga muhrlovchi, tarixni tarixda qoldiruvchi mohir ijodkor.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. M.Alaviya “O'zbek xalq marosim qo'shiqlari” Toshkent Fan 1974-yil
2. M.Afzalov “O'zbek xalq baxshilari” Sharq yulduzlari 1964 yil
3. Q.Yulodoshev “Alpomish” Ma'naviyat 2002-yil
4. X.Kichkilov “Surxon vohasi qo'shiqchiligida ajdodlarimiz an'anasi” Jayhun 2005-yil.